

CHARACTERISTICS OF THE VILLAGE OF NAYMANTEPA SHEVASI OF ZHAMBOY DISTRICT OF SAMARKAND REGION

Rushana Olimova,

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'quvchisi

Imiy rahbar: Xusniddin Xaitov,

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'qituvchisi

Annotation: This article discusses the features of the dialect of the village of Naimantep, Jambay district of the Samarkand region and their use. Dialectisms recorded among the local population are analyzed.

Keywords: Dialectical words, Naimantepa village, Kypchak dialect, local population, peculiarity, phonetic phenomenon, word adaptation.

SAMARQAND VILOYATI JOMBOY TUMANI NAYMANTEPA QISHLOG'I SHEVASIGA XOS XUSUSIYATLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi Naymantep qishlog'i shevasiga xos so'zlar xususiyatlar, ularning qo'llanilishi borasida so'z boradi. Mahalliy aholidan yozib olingan dialektizmlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Shevaga xos so'zlar, Naymantepa qishlog'i, qipchoq lahjasi, mahalliy aholi, xususiyat, fonetik hodisa, so'zlarning moslashishi.

ХАРАКТЕРИСТИКА СЕЛА НАЙМАНТЕПА ШЕВАСИ ЖАМБОЙСКОГО РАЙОНА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности говора села Наймантеп Джамбайского района Самаркандской области и их использование. Анализируются диалектизмы, зафиксированные у местного населения.

Ключевые слова: Диалектические слова, село Наймантепа, кыпчакский диалект, местное население, особенность, фонетическое явление, адаптация слова.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqida birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir" - degan so'zlarini eslash o'rindir [1:3]

Samarqand viloyati Jomboy tumani Naymantepa qishlog'ida mahalliy aholi qipchoq lahjasidan foydalanadi. "Qipchoq lahjasi, Qipchoq qabilalari ham uzoq o'tmishda Oltoy o'lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan.

XIII asr o'rtalarida ular kimak //imak(yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrlarda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar. VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo'yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo'ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O'rta Osiyo, Volga bo'yi Respublikalari territoriyalarida istiqomat qiladilar. Bu lahja vakillari O'zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida yashaydilar." [2:5]

Naymantepa joylashgan hudud atrofida juda ko'p tepaliklar bor bo'lgan. Bu haqida shu qishloqda yashab kelayotgan Sulaymonova Gulsara, Abdullayeva Mavluda momolarning fikriga ko'ra bilish mumkin. Shuningdek, hozirgi kungacha Ko'ktosh bobo tepaligi saqlanib qolgan. Momolarning aytishicha, bir boy savdogar yo'lda ketayotganida qizining tobi qochib, to'satdan vafot etgan. Qizning qabrini esa shu yerdagi bir tepalikka ko'mib ketgan ekan. Shundan buyon ushbu tepalikka kelganlarni hammasi duo qilib ketish odati saqlangan. Ushbu qishloqqa ko'chib kelgalar nayman urug'idan bo'lib, keyinchalik ular yashaydigan hudud Naymantepa deb atalgan. Naymantepa qishlog'ida kekxa otaxon va onaxonlar eskirgan (arxaik) so'zlardan foydalanadi. Masalan, paypoqni jilop, kerosinni jilmoy, samolyotni ayroplon tarzda aytishadi. Yana Naymantepa qishlog'ida evfemizmlarni ("Evfemizm (yun. Euphemismos – яхши+phemi – gapiraman). Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rniga qo'pol botmaydigan so'z (ibora)ni qo'llash")[3:131] ham juda ko'p ishlatishadi. Masalan, "o'ldi" fe'lini "juda bo'ldiq", "omanatini beripti", "bofot etipti" kabi ifodalaydi.

Qishloq shevasida "y" tovushini o'rniga ko'proq "j" tovushini qo'llaydi. Masalan, "yeb yubor"ni "jebjar", "yotdi"ni "jotti" deb aytadi. Naymantepa qishlog'i faxriylaridan biri Abdullayeva Mavluda momo deyarli adabiy tildan foydalanmaydi. Ba'zi so'zlarni ham juda o'zgacha tarzda ifodalaydi. Masalan, "katta otasini" so'zini "qattasini", "yaxshimi"ni "yoxshima", "zirak"ni "sirg'a", yog' soladigan idishni "moychova" deydi. Ushbu shevaga xos so'zlar uzoq yillardan buyon qondan qonga o'tib kelmoqda.

"Shevalar va lahjalarni tarixiy jihatdan o'rganish o'z navbatida xalq tarixi va til tarixi uchun ham ko'p material berishi mumkin. Chunki xalq tarixi va til tarixida o'z ifodasini topmagan hamda aniq bo'lmagan fikrlar sheva va lahjalarni tekshirish davomida aniqlab beriladi." [4;4]

Naymantepa qishlog'idagi so'zlashuv uslubida metateza, ya'ni u yoki bu so'zdagi undosh tovushlarni o'rin almashinuvi kuzatiladi. Masalan, limonad - nimolat, devor – devol, supra – surpa, nonpar – nampar kabi so'zlar uchraydi. Bundan tashqari ushbu qishloq so'zlarni quyidagi tarzda qo'llaydi: yurak – jurak, yo'qol – jo'g'ol, yeb yubor – jebjar, yirtiq – jirtiq va boshqalar.

Ushbu qishloqda rus tilidan kirib kelgan so'zlardan mahalliy shevaga moslashishi kuzatiladi. Xususan, "xolodilnik" so'zini qishloq aholisi "qaladinnik" deb aytishadi. Bunday so'zlarga ta'til manosidagi "otpusk" so'zini ham aytish mumkin, bu so'z "atpiska" tarzida qo'llanadi. Bu esa o'zga tildan kirgan so'zlarning mahalliy aholi shevasiga moslashib borishi jarayonini ifodalaydi. Natijada shevalarda ham o'zlashgan qatlam hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent:, Ma'naviyat. 2008. 176 b.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent:, 2013. 88 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent:, "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 164 b.
4. Bobojonov M. Dialektologiya fanidan ma'ruzalar matni. – Nukus:, 2007. 41 b.